

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.A.Qo'chqarov	
Hayot faoliyati xavfsizligi kursida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida amaliyot organlarini o'qitish metodikasi	533
L.E.Bobomurodova	
Talabalar mustaqil ta'limini shakllantirishning muhim pedagogik omillari.....	537
U.M.Nomozov, Z.A.Jabbarov, B.T.Jobborov	
Neft uglevodorodlari bilan ifloslangan sho'rlangan tuproqlarning rekultivatsiyadan so'ng biologik xossalari o'zgarishi	541
B.B. Nizomova	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar, Protistalar, Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati	546
Z.M.Mamatov	
Quyov terisining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish.....	550
N.A.Quldashev, M.Rahmatova	
Ayrim nutq ko'rinishlarida agnonim so'zlarning qo'llanishi	553
D.J.Nizomitdinov	
Germaniyalik sharqshunos va islomshunos Tilman Nagel Amir Temur shaxsi haqida.....	555
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	558
D.R.Ruzmatova, Sh.A.Begimkulova	
Afg'on-amerika diaspora adabiyotida diniy va dunyoviy ta'lim: ayol, oila va jamiyat	562

**AFG'ON-AMERIKA DIASPORA ADABIYOTIDA DINIY VA DUNIYOVIY TA'LIM: AYOL,
OILA VA JAMIYAT**

**РЕЛИГИОЗНОЕ И СВЕТСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ЛИТЕРАТУРЕ АФГАНО-
АМЕРИКАНСКОЙ ДИАСПОРЫ: ЖЕНЩИНА, СЕМЬЯ И ОБЩЕСТВО**

**RELIGIOUS AND SECULAR EDUCATION IN THE LITERATURE OF THE AFGHAN-
AMERICAN DIASPORA: WOMAN, FAMILY AND SOCIETY**

Dilnoza Ramatjanovna Ruzmatova¹

¹O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrası dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Begimkulova Shaxnoza Axmedovna²

²Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Yangiyer filiali "Umumiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi,

Annotatsiya

Ushbu maqolada Afg'on-Amerika diaspora adabiyotining yetuk adibalaridan Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil, Nilufar Pazira va Saima Vahoblarning asarlari badiylikning ta'sirdorlik mezonini va uning maromlari asosida tahlil qilinganda, ularning asarlarining badiiy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Har bir adiba ijodida Afg'oniston bosh mavzu bo'lib, urushdan oldingi, tolibonlar va ulardan keyingi davrlardagi afg'onlarning ijtimoiy turmush tarzi ayniqsa ayollarning jamiyatda, oilada o'rnini mahorat bilan tasvirlangan. Ta'lim o'z o'rnida ikkiga diniy va dunyoviy ko'rinishlarga ajratilib, diniy ta'lim Afg'oniston bilan bog'liqlikni, dunyoviy ta'lim esa Amerika bilan uzviylikni namoyon etadi. O'zligini, qadriyatlarini va tarixiy kelib chiqishini din orqali izlashsa, zamonaviy rakursda Amerika jamiyatida bugun va ertangi kun taqdiri dunyoviy ta'limni egallash orqaligina kafolatlanayapti. Afg'on-amerika adabiyoti namoyandalari ijodida ayollar bilim olishida diniy va dunyoviy ta'lim mushtarakligi, G'arb va Sharqning bir-biriga zid an'analari, ikki millat urf-odatlaridagi mushtaraklik va o'ziga xoslikni tasvirlaydi. Ingliz tilida ijod qiluvchi afg'on yozuvchilar har ikkala mamlakat madaniyati hamda qadriyatlarini inkor etmagan holda diniy va dunyoviy g'oyalarni tarannum etishgan.

Аннотация

В данной статье анализируются произведения Фаруки Гавхари, Марьям Кудрат Асил, Нилуфар Пазира и Саймы Вахаб, среди зрелых писателей литературы афгано-американской диаспоры, на основе критериев художественного влияния и его достоинств, а также художественных характеристик раскрыты их произведения. Афганистан является основной темой в творчестве каждого писателя, умело описан социальный образ жизни афганцев в довоенный, талибский и послевоенный периоды, особенно роль женщины в обществе и семье. Вместо этого образование разделено на религиозный и светский аспекты: религиозное образование показывает связь с Афганистаном, а светское образование показывает связь с Америкой. Если они ищут свою идентичность, ценности и историческое происхождение через религию, то с современной точки зрения судьба сегодняшнего и завтрашнего дня в американском обществе гарантирована только получением светского образования. В творчестве представителей афгано-американской литературы отражены общность религиозного и светского образования в женском образовании, противоречивые традиции Запада и Востока, общность и своеобразие традиций двух народов. Афганские писатели, писавшие на английском языке, восхваляли религиозные и светские идеи, не отрицая при этом культуру и ценности обеих стран.

Abstract

In this article, the works of Farooka Gauhari, Maryam Quadrat Aseel, Nelofar Pazira, and Saima Wahab, among the mature writers of the Afghan-American diaspora literature, are analyzed based on the criterion of artistic influence and its virtues, and their artistic characteristics are revealed. Afghanistan is the main theme in every writer's work, the social lifestyle of Afghans in the pre-war, Taliban and post-war periods, especially the role of women in society and family, is skillfully described. In its place, education is divided into religious and secular aspects, religious education shows a connection with Afghanistan, and secular education shows a connection with America. If they seek their identity, values and historical origin through religion, from a modern point of view, the fate of today and tomorrow in American society is guaranteed only by acquiring a secular education. In the works of Afghan-American literary figures, it describes the commonality of religious and secular education in women's education, the conflicting traditions of the West and the East, and the commonality and uniqueness of the customs of the two nations. Afghan writers writing in English praised religious and secular ideas without denying the culture and values of both countries.

Kalit so'zlar: ta'lim, diniy va dunyoviy, an'ana, qadriyat, ikki madaniyatga mansublik

Ключевые слова: образование, религиозное и светское, традиция, ценности, принадлежность к двум культурам.

KIRISH

Afg'onistonda ro'y bergan jiddiy tarixiy buriilish va uning talofatlari hamda jamiyat hayotiga ta'siri afg'on-amerika adabiyoti ayol yozuvchilari Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil, Nilufar Pazira va Saima Vahab asarlarida tasvirlanarkan, eng og'ir vaziyatlarda ham faqatgina ta'lim orqali yorug' kunlarga chiqish mumkinligi isbot talab qilmas aksiomalar ko'rinishida aks etadi. Ta'lim o'z o'rnida ikkiga diniy va dunyoviy ko'rinishlarga ajratilib, diniy ta'lim Afg'oniston bilan bog'liqlikni, dunyoviy ta'lim esa Amerika bilan uzviylikni namoyon etadi. O'zligini, qadriyatlarini va tarixiy kelib chiqishini din orqali izlashsa, zamonaviy rakursda Amerika jamiyatida bugun va ertangi kun taqdiri dunyoviy ta'limni egallash orqaligina kafolatlanayapti. To'rtala adibaning jamiyatda ayollarning erkaklarga tobeliklarini, qiz bola obrazlari orqali mazkur avtobiografik asarlarda mohirona tasvirlaydiki, Afg'onistondagi ayollarning roli, jinsiy tengsizlik masalalarini asar bosh qahramonlari ya'ni Faruka, Saima, Nilufar, Maryam o'zlari misolida yoritib, urush, kamsitish, xo'rlash, zug'um ushbu yurt ayollari kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib bo'lganligidan guvohlik beradi. Ayollar va ayollarning jamiyatdagi o'rni adabiyotning mangu mavzulariga taaluqli bo'lib, buning ifodasini Faruka Gavhariy *"Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey"* (*"Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi"*), Maryam Quadrat Asil *"Torn between Two Cultures: an Afghan-American Woman Speaks out"* (*"Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik ayol haqiqati"*), Nilufar Pazira *"A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan"* (*"Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab"*) va Saima Vahob *"In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate"* (*"Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdiriga qarshi kurashlari"*) asarlarida mahorat bilan tasvirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Faruka Gavhariyning *"Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey"* (*"Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi"*) [1]da ta'limga bo'lgan e'tibor butun asarda bosh qahramon hayotida o'z aksini topadi. Ziyoli oila farzandi Faruka harbiy uchuvchiga turmushga chiqadi, uning baxti turmush o'rtog'i ham xuddi otasidek ilm-fanga e'tiborli bo'lib, ayolining ilm olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qilardi. Bolaligidan Farukaning otasi farzandlarining ham dunyoviy, ham diniy ta'lim olishiga katta e'tibor qaratardi. Oiladagi eng chiroyli an'analardan biri har kuni uylar tozalanib, soat o'nda onasi bolalarga "Qur'on"ni arabchada o'qish bo'yicha muntazam dars berardi. Otasi kechki payt bolalarga ingliz tilini o'rgatardi. Oilaning eng katta yutug'i ham diniy va dunyoviy ta'limni ota va onadan olishlik edi, chunki bu, birinchidan, farzandlarni ota-onaga yaqinlashtirsa, ikkinchidan, oilaviy muhitdagi ijobiy muntazam rejimni shakllantirgan. Bilim olishga kuchli ishtiyoqning yana bir misoli tariqasida otasining qo'shni ayolni farzandlariga dariy-pushtun tilida o'qish va yozish mahoratini shakllantirishlari uchun uyiga taklif qilganidan ham ko'rish mumkin. Bu bo'limda ishning adabiyotlar tahlili va metodlari yoritiladi. Alohida xat boshiga ajratilgan holatda. Adabiyotlar tahlili va metodlari qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, alohida xat boshiga ajratib yoziladi. *"The reading, writing and memorizing assignment were very hard for me in the beginning: Mom, Dad, and the tutor expected us to learn everything after having told us only once. In spite of the difficulty, I learned reading and writing in no time. I read the entire Koran in the first year"* (Oyim, dadam va ustozim bir martada yozishni, o'qishni, yod olishni talab qilishar edi. Ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan o'qish va yozishni erta yoshda o'rgandim. Qur'onni yoshligimdan o'qishni o'rgandim.) [1, 8]. Hayratlanarlisi shundaki, Gavhariy o'sha qo'shni ayolning barcha darslarni shunchaki oilaga bo'lgan ehtiromi yuzasidan bo'lganligini va hatto hech qanday moddiyatga borib taqalmaganligini ta'kidlaydi. Ayniqsa otasining *"Education stays with you all your life but money does not, so try to concentrate on things that no can take from you"* (Pul emas ilm doim sen bilan bir umr qoladi, shuning uchun vaqtingni bekorga oladigan narsalarga e'tibor berma.) degan so'zlari, oila a'zolari uchun ta'limning muhimligini ko'rsatadi. [1,5]

Maktab yillari va undagi o'qitilgan fanlar Farukani ko'p ilm olishga undagan, maktab yillarini

"My entire school days were full of happiness. Without any difficulty I was always among the top students in the class" (Butun maktab yillarim shodlikka to'la bo'lgan. Hech qanday qiyinchiliklarsiz eng a'lochi talabalar qatorida edim.), deb xotirlaydi [1,13]. Nafaqat Faruka, balki oiladagi barcha farzandlar ilm egallashga qiziqardi. Eng qiyin kunlarida ham egallagan bilimlari

ularga yordam bergan. Otasining bevaqt o'limi oila uchun ham ma'nan fojia va shu bilan bir qatorda moddiy qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. *"When Dad died in 1966 as the result of a heart attack, he was survived by ten children. Of these only my sister Farida and I were married. The rest were at home, and their ages ranged from eighteen years down to sixteen months. Besides keeping up their schoolwork, my sister held jobs, not in restaurants, but writing articles for journals or as a news announcer for Kabul Radio. Thanks to free education in Afghanistan, there were no school fees to worry about."* (Otam 1966-yilda yurak xurujidan vafot etganida onam o'nta bola bilan yolg'iz qoldi. Farzandlardan faqatgina men va opam Farida turmushga chiqqan edik. Onam bilan qolganlarimiz o'n olti oylik chaqaloqdan to o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'spirinlar edi. Maktab ta'limi bilan bir qatorda singillarim, restoranlarda emas, balki jurnallarga maqolalar yozib va Kabul radiosida boshlovchi sifatida tirikchilik qilishni boshlashdi. Hayriyatki, Afg'onistonda ta'lim tekin bo'lib, maktab to'lovi xususida qayg'urmasa ham bo'lardi.) [1,26]. Shu o'rinda oilada otaning sog'lom va to'g'ri siyosati ya'ni erta yoshdan farzandlarning har tomonlama ta'lim olishiga e'tibor qaratishi ularni har qanday vaziyatdan yechim topa olishiga yordam bergan. Faruka Gavhariyning *"Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey"* (*"Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi"*) asarida qizlarning taqdiri, ularning qachon va kim bilan turmush qurishida egallagan ta'limi ham muhim rol o'ynardi. Agar qiz farzand ta'lim olishda davom etayotgan bo'lsa, birinchidan, erta turmush qurish muammosidan qutuladi va ikkinchidan, o'ziga tengdosh ziyoli insonning umr yo'ldoshi bo'lishi mumkin edi. Romanning yana bir kashfiyoti Faruka va uning qaynsinglisi Guljanning taqdiri orqali ilm yo'lini tanlagan ayol va o'rta ta'limni ham tugatmagan, o'zidan 31 yosh katta odamga turmushga chiqishga majbur bo'lgan ayol hayoti parallel beriladi. Yana bir achchiq haqiqat sifatida nikohning faqatgina sovchilik asosida hal qilinishi ochib beriladi. Asarda siyosiy jarayonlar talabalar hayoti bilan bog'liqligi kuzatiladi, talabalar har doim siyosatga qiziquvchi qatlam bo'lib, jamiyat hayotida faol a'zolar sifatida gavdalanadi. Faruka asar boshida bilim oluvchi bo'lsa, voqealar rivoji asosida bilim beruvchi vazifasini bajara boshlaydi. Gavhariyning hayotida ta'lim markaziy va u bilan ajralmas vosita tarzida tasvirlanadi. Hayotining ayrim bosqichlarida o'zi ta'lim bergan talabalari bilan yuzma-yuz keladi. Ustoz sifatida tolibon hukmronligi davrida ham o'z mavqeyini yo'qotmagan Gavhariy obrazi o'quvchiga tarixiy-badiiy haqiqat asosida taqdim etiladi.

Faruka Gavhariy asarida dunyoviy ta'limga e'tibor yetakchilik qilsa, Maryam Quadrat Asilning *"Torn between Two Cultures: An Afghan-American Woman Speaks out"* (*"Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik ayol haqiqati"*) asarida diniy ta'lim orqali afg'on qizining Amerikadagi hayot yo'lining izga tushishi tasvirlanadi [2]. *Kitob yozuvchini Amerikada zamonaviy afg'on milliy an'analari asosida voyaga yetganligi, bolaligidanoq chin "amerikalik" bo'lish istagining yillar osha kuchli xohishga aylanishi va buning oqibatida o'zligini yo'qotish muammosiga duch kelgani, bunday og'ir tanazzulni musulmon diniy aqidalari va o'z millatining asl madaniy tamaddunining mohiyatini anglab, yechim topganligiga bag'ishlangan. Unga har ikkala madaniyat, davlat va an'analarning muhimligini birini ikkinchisidan ustun qo'ymagan holda, tolerantlik asosida ifodalaydiki, yozuvchi badiiyatiga xos yana bir qirra Sharq va G'arb o'rtasidagi bo'shliqqa ko'rinmas ko'prik qurib afg'on-amerikalik ayol sifatida individual o'zgacha perspektivaga tayangan holda ona vatani va yashayotgan yurtiga xos xususiyatlarni obyektiv fonda yoritadi. Kitobdagi eng asosiy muhokamalar islom dini va uning sifatlarini noto'g'ri talqin qilayotgan g'arbliklarga uning asl mohiyatini ochib berish va kezi kelganda "Qur'on"dan suralar keltirib, isbotlashga qaratilgan* [7]. Romanda Maryam Quadrat Asil vazifasi dastlab dinni o'rganayotgan talaba sifatida gavdalansa, asar davomida dinni to'g'ri talqin qilishga harakat qilayotgan din targ'ibotchisi shakllana boshlaydi. Asar Maryamni onasi bilan Afg'onistonga ilk sayohati bilan boshlanadi. Onasi Qobul universitetida birga o'qigan dugonalari bilan ko'rishadi. Ularning hech biri turmush qurmagan va bu haqda hali o'ylab ham ko'rishmagan edilar. Ular yaxshi ta'lim olgan va moliyaviy jihatdan hech kimga qaram emasdilar. Ularning zamonaviy kalta yubkalari, so'nggi modadagi ko'ylaklari Maryamni o'ziga batamom maftun qilgandi. Bolaligidan otasi unga hamma narsaga faqat bilim bilan erishish mumkinligini uqtirar edi. Shu bilan birgalikda Amerikada yashovchi afg'onlar urf-odatlarini saqlab qolish ko'proq ayollar zimmasida edi. Maryam, ukasi va singlisi xuddi Faruka Gavhariylar oilasidagidek ota boshchiligida ham diniy, ham dunyoviy ta'lim olishadi. Uyda dinga asoslangan tarbiya va ko'chada dunyoviylik ustunlik qiluvchi amerikancha hayot tarzi hukm surar edi. Asillar oilasi uchun chin ma'noda oila va jamiyat qarashlari o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'la boshladi hamda farzandlar

“double-life” ya’ni “ikki madaniyatga mansublik” sindromi bilan bevosita va bilvosita kurasha boshlashdi. Asar bosh qahramoni muallifning o’zi bo’lib, u hech bir kategoriyaga mansub emasligidan qiynalar ya’ni u na afg’on, na amerikalik va na afg’on-amerikalik edi. Maryamni Amerikaning barcha teng huquqli deb ovoza qilishi, aslida amaliyotda uning hech qanday aksi yo’qligi hayron qoldirardi. *“In school I had been taught the American ideals of equality and liberty for all. I was well aware that they should make me just as much an American as everyone else. However, these ideals simply did not much my actual experience. Of course, I faced teasing- being called a sand nigger, being asked if my uncle was Saddam Hussein, and all sorts of other blatant, shameless attacks on my self. Looking back I see these experiences as silly and childish, certainly nothing to be taken to heart.”* (Maktabdanoq menga Amerikaning hamma uchun erkinlik va tenglik g’oyalari o’rgatildirdi. Ularning aqidasi ko’ra men ham barcha amerikaliklar bilan o’zimni bir xil his qilishimga qaratilgan harakat ekanligini ongli ravishda his qilardim. Biroq bu g’oyalar hayot tajribamga to’g’ri kelmasdi. Doimiy ravishda menga qarata “qora mayiz”, “Saddam Husayniyning jiyani” kabi laqablar ishlatilar va oshkora ravishda uyatsiz hujumlar bo’lardir. Albatta buning bari bolalik o’tmishda qoldi.) [2,69]. Maktabda sinfdoshlari tomonidan juda ko’p kamsitishlarga duch kelishi Maryam Asil hayotida o’zligini izlash jarayonidagi muammolarning asosiy sababchisi edi. Uni hayratga solgan yana bir jihat, g’arb madaniyatidagi tenglikning chiroyli namunasi islom dinining asosida kuzatilishi edi. Garchi musulmonlarda nikohning noto’g’ri interpretatsiya qilinishi kuchli tanqid qilinishi holatlari uchray tursa-da, aslida qiz va yigitning nikohsiz oshkora munosabatlari ochiqlanmasa-da, nikohdan oldin har ikkala tomonning – qizning ham, yigitning ham roziligi bir hil inobatga olinishi muallifning islom haqiqatdan oliyjanob din ekanligini anglashiga yordam beradi. *“Growing up Muslim Afghan-American”* (“Afg’on-amerikalik musulmonning ulg’ayishi”) bo’limida islom dinini adibaning o’zi chuqurroq o’rganar ekan, shu o’rinda o’quvchiga dalillar o’rgatishga, tushuntirishga va talqin qilishga harakat qiladi.

“Many Afghan youth my age had difficulty meeting each other because of the social hesitation to allow them to mingle freely at weddings or other social gatherings. In Islam, a man and woman are allowed to speak to each other and see each other in order to decide whether their relationship has a future and can lead to marriage. But according to the Afghan code, if one is discovered doing that, especially if that person is a girl, she becomes marked.” (“Ko’pgina afg’on tengdoshlarim, bir-birlari bilan uchrashishda ijtimoiy chegaralanishlarga duch kelishar, har xil yig’in va to’ylarda bir-biri bilan erkin suhbatlasha olishmay qiyinlashardi. Agar erkak va ayol munosabatlari nikohga borib taqaladigan bo’lsa, islomda ko’rishishga ruxsat beriladi. Afg’on an’analariga ko’ra, bir-biriga ma’qul kelishsa, qiz fotihali hisoblanadi.”) [2,72]. Maryam tegishli bo’lgan oilaviy muhit unga qilingan eng katta in’om ekanligini adiba bir necha bor asarda ta’kidlab o’tadi, ota-onasi, buvisi va turmush o’rtog’i uni hamisha ma’nan qo’llab, quvvatlashardi. Buvisining hayotidagi o’rni islom dinining asl ahamiyatini anglashida juda muhim bo’lib, Maryamga hijobga kirganida ro’molni to’g’ri o’rashni ham aynan buvisi o’rgatadi. Maryam ilk marotaba masjidga “Qur’on” o’qishni o’rganish uchun borganida o’n yoshli qizaloq bo’lib, otasi boshiga ro’mol o’rashi kerakligini va boshqa kalta shim kiyishi nojoiz ekanligini tushuntiradi. Qiz farzand bo’lsa ham Maryam hayotida onasidan ko’ra ota roli muhimroq ekanligi tarbiyaning har bir bosqichida yaqqol namoyon bo’lib boradi. Keyinchalik masjidga borganini shunday eslaydi. *“During my teenage spiritual resurgence, I returned to the mosque to attend a women’s group that conducted study sessions in the Quran. We spent evenings picking apart sections of the Quran to probe its meaning. A teacher was always present to give us substantive direction, without which we would have been simply hypothesizing in the dark. It was a wonderful way to bond with other women as well as with the community at large.”* (“O’smirlik davrimda masjidga yana ayollar guruhida “Qur’on” o’rganish darslariga qatnasha boshladim. Kechqurunlari asl mohiyatini anglab olish uchun “Qur’on”ni qismlarga ajratib o’rganardik. Ustozimiz har doim bizga to’g’ri yo’l ko’rsatib turardi, uning yordamisiz o’zimizni zulmatga tushib qolgandek his qilardik. Shuningdek, darslarga qatnashishning yana bir ajoyib tomoni bu jamiyatdagi boshqa ayollar bilan uchrashish, tanishish uchun vosita vazifasini o’tardi.) [2,89].

“Ikki madaniyatga mansublik: afg’on-amerikalik ayol haqiqati” asarida *“Real Islam”* (“Haqiqiy islom”) bobi Maryam Quadrat Asilning islom dinini “Qur’on” orqali o’rganish va odamlar talqinida anglash o’rtasida tafvutlar borligiga bag’ishlangan mushohadalari bilan to’yintirilgan. Hattoki, u Musulmon talabalar tashkilotiga asos soladi. O’zi o’rganganlarini boshqalarga o’rgatishdan ma’nan

rohatlanardi. Terror hujumlar dunyo aholisiga xavf solayotgan bir paytda, tolibonlarning har bir harakatini "jihod" orqali ifodalashlariga qarshi, yozuvchi jihodning asl mohiyatini "Qur'on"dan "Tavba" surasini keltirib isbotlaydi. Bu so'zdan shunchalar nafratlanagan Maryam Qudrat Asil hatto uni so'z boyligidan olib tashlashni istardi. Biroq, "jihod" istilohining asl ma'nosini o'rganarkan, "jihod" aslida "kurash"ni anglatadi va bu kurash ko'p ma'noli bo'lib, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini tushunadi: *"Those who believe, and suffer exile and strive with might and main, in God's cause, with their goodness and their persons, have the highest rank in the sight of God. They are people who will achieve salvation (9:20)"* (Imon keltirgan, hijrat qilgan va Alloh yo'lida (toatida) mollari va jonlari bilan kurashganlar Allohning nazdida darajalari ulkan zotlardir va aynan o'shalar yutuq egalaridir.) [2, 154].

Tadqiq qilinayotgan adibalarimiz ziyoli oila farzandlari bo'lib, ham dunyoviy va ham diniy ta'limga birdek e'tibor qaratilishi natijasida g'arb va sharq rishtalarini, qadriyatlarini bir xil muvozanatda egallay olganliklari bilan ahamiyatlidir. Masalan, Saima Vahobning *"In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate"* (*"Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdiriga qarshi kurashlari"*) asarida muallifning otasi va bobosi ta'lim fidoyilari sifatida tasvirlanadi [4] Otasi Yevropa davlatlarida o'qib, ilm olgani bois onasining ham ta'lim olishini xoxlardi, ammo hammasi bir zunda uni KGB tomonidan olib ketilgani bilan tugaydi. Bobosi, qishloq mullasi, yigitlarga o'qish va yozishni o'rgatardi. Uyida esa o'z qizlariga ta'lim beradi. *"He had traveled to Saudi Arabia to memorize the Koran. He would make us read it every evening and would translate into Pashtu the parts that he wanted to point out to us, since we could only read the Arabic."* ("Qur'on"ni Saudiya Arabistoniga borib o'rgangan edi. Har kecha bizga "Qur'on" o'qitar va faqatgina arabcha o'qishni bilganimiz sabab o'zi ajratgan qismlarni pushtun tiliga tarjima qildirardi.) [4,15]. Maktabni tugatib Amerikadagi Professor tog'asi ishlaydigan kollejga o'qishga kirganida Saimaga oilasi tomonidan qo'yiladigan talablar juda qattiq edi. Undan birinchi navbatda o'zini pushtun qizlar kabi tutishi talab qilindi. Bir nechta musulmon qizlar bilan do'stlashsa-da, ularning uyiga mehmonga borish man etildi. Ammo bu tartib qoidalar o'g'il bolalarga va erkaklarga taaluqli emasdi. Saima Vahob bunday tengsizliklarni qabul qila olmas hamda jamiyatda erkak va ayol tengsizligiga sabablar topishda qiynalardi. Amerikada har oilaviy yig'ilishlarda amakilari tomonidan ko'tariladigan asosiy mavzu Saima va uning xulq-atvori edi. Lekin Saima ham o'z navbatida, ularga qarshi chiqar va amerikanacha uslubda noroziligini oshkor etardi. Chunki Amerika unga nafaqat bilim balki o'zi uchun kurashishni, ayol huquqlarini ham o'rgatgan edi. Tog'alarining maqsadi uni ziyoli qilib, Amerika fuqaroligini olib, yurtiga qaytarib, qarindosh yigitlaridan biriga unashirib, o'sha turmush o'rtog'i bilan Amerikaga olib kelib, uni ham ishga joylashtirish edi. Yozuvchi shu bilan ayollarning xoh dunyoviy, xoh diniy ta'lim olmasin, afg'on ayollarining bari bir oilada o'z ovozi, o'z tanlovi va huquqi yo'qligini badiiy tasviriy ifodalagan. Saima bunday munosabatlarga qarshi chiqib, tog'alarinikidan ketib qoladi va mustaqil hayot boshlaydi. Barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishida, albatta bobosi va tog'alari sabab egallagan bilimi yordam beradi. Endi Saima "afg'on ayoli yolg'iz o'zi jamiyatda yashab keta oladimi?", degan savolga javob izlashni boshlaydi. Ammo moliyaviy, ijtimoiy va mafkuraviy qiyinchiliklarga qaramay, ukasi, singlisi va onasini o'z uyiga olib kelib, ularning barcha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Muallifning badiiy haqiqati shuni ko'rsatadiki, Saima amerikalik sifatida, Amerikda olgan bilimi yordamida Afg'onistonga ko'proq foydasi tegadi. Afsuski, shaxsiy hayotida hech bir ijobiy natijaga erishmasa ham, tarjimon sifatida pushtun va ingliz tilida yagona mutaxassis sifatida harbiy bazalarda faoliyat olib boradi. Ammo, u hayotidan butkul mamnun edi. Uning asliyat haqidagi o'y-fikrlari ochiq qolsa-da, tarjimon sifatida egallagan bilim va ko'nikmalari ikki millat vakillarini to'g'ri, mantiqiy xatolarsiz anglashlariga yordam beradi. Saima Vahabi o'ziga yuklatilgan vazifani mas'uliyat bilan ado etgani bois u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi uch marta qayta uzaytiriladi. *"I had thought that I kept coming back to Afghanistan to better understand the afghan people, when all along the goal was even more personal. I now knew why my father had chosen death over life as my father, and I forgave him his choice because I finally understood"*. (Afg'onistonga qayta-qayta kelishimga sabab afg'onlarni yaxshiroq tushunishga intilishlarim bo'lsa kerak deb o'ylardim, lekin maqsadim shaxsiyatimga ham ko'proq borib taqalardi. Endi otam nega hayotidan o'limni afzal ko'rganini bilardim va uni, va nihoyat, tushunganim bois tanlovi uchun kechirgandim.) [4,460]. Asarda ta'limning qizlar hayotida ahamiyatini ko'rsatish uchun Saima va Sharifa obrazlari qiyosiy

ochib beriladi. Saima Amerikada oliy ta'lim olgan, Sharifa Afg'onistonda o'sgan, maktabga ham bormagan qiz sifatida gavdalanar ekan, ikki davlatdagi ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklar tarixiy-badiiy detallar yordamida tasvirlanadi: *"She had never gone to school, but once I saw her pick up one of Bashir's book when she didn't think her brother was around. She flipped through it, glancing at the pages. It was in Pashtu. I asked her if she could read it. She smiled and said, "Why would I need to read? It is not like I am going to need to read a sign to find the cow to milk!" She laughed, but I did not have to be a psychologist to know that she was hurting inside and resented her brother for what she could never have. Did she resent me, too?"* (U hech qachon maktabga bormagan, ammo bir kuni ukasi Bashir yo'qligida uning kitobini olib, varaqlab, betlarini tomosha qilayotganini ko'rib qoldim. Kitob pushtun tilida bo'lib, undan o'qiy olasanmi deb so'raganimda "Menga o'qish nimaga kerak? Sigir sog'ish uchun kitob o'qish shart emas", deb kulib javob berdi. Ammo uning ichidan o'tganlarini va ukasiga nisbatan alamlarini bilish uchun psixolog bo'lish shart emas edi. U balki mendan ham achchiqlangandir?") [4,212]. Shu parchaning o'zi Sharifa misolida butun afg'on qizlarining Tolibon hukumati davridagi bir xil kelajaksiz taqdiridan hikoya qiladi. Bir necha marta istilo qilinsa ham Afg'onistondagi afg'onlar mard va jo'mard insonlar sifatida o'zligini yo'qotmasliklari Saima Vahobning "Ota yurtimda" asarida reallikka asoslanib, badiiy tasvirlanishi adiba erishgan yutuq sifatida e'tirof etilishi lozim. Saimadagi mardonavorlik shu darajada yuqori cho'qqiga ko'tarilgan ediki, mahalliy aholi bilan harbiylar muloqot qilishi lozim bo'lsa, qo'rqmasdan harbiylar bilan birgalikda minalashtirilgan dalalardan o'tib afg'on xalqi uchun ishonchli vakil bo'lishga harakat qilardi. Mahalliy oqsoqollarga afg'on qadriyatlariga asoslanib "baba" deb murojaat qilganda, ularning ham "qizim" deya javob qaytarishlarini Amerika harbiylari hayratlanib kuzatishardi. *"I approached him from the street, calling out, "Asalaam alaikum, Baba".... "You have trusted me," I said gratefully. "I have more respect for Pashtun culture than you might imagine. Now I am going to ask you a favor. If you grant me this favor, I promise I will not violate any laws of Pashtunvali", "Anything, looray," he said, using the Pashtu endearment that means "daughter."* ("Yaqinlashib, unga "Assalomu alaykum, Bobo" ... "Siz menga ishondingiz", dedim minnatdorchiilik bilan. "Siz Pushtun madaniyatini qanchalik xurmat qilishimni tasavvur ham qila olmaysiz, sizdan bir narsani iltimos qilmoqchiman. Agar meni rad etmasangiz, pushtunlarning hech bir qonuniga qarshi ish ko'rmayman. "So'rayver, lurey", dedi u, pushtun tilida "qizim" ma'nosini beruvchi e'tirofni ishlatib.") Saima Vahob afg'onlarning turmush tarzini, ularning qadriyatlarini bilgani uchun ham tarjimon sifatida faoliyat olib borarkan, nafaqat matnni tarjima qildi, balki ikki millat o'rtasidagi madaniy ko'prik vazifasini bajardi [4, 238].

Afg'on-amerika adabiyotining yana bir iste'dodli adibasi Nilufar Paziraning *"A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan"* (Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab) asarida ham diniy va dunyoviy ta'limning zaruriyati uzviylik asosida yoritiladi [3]. Paziraning ota-onasi ziyoli bo'lib, farzandlarining ilm egallashlariga alohida e'tibor berishadi. Ta'limga bo'lgan intilish shunchalar kuchli ediki, hatto maktabga ketayotgan avtobuslarga bombalar qo'yilib, bolalar halok bo'lsa ham, beqaror siyosat hukmronlik qilsa ham, har qanday to'siqqa qaramasdan afg'on bolalari maktabga borishni, ilm olishni istashardi. Asarda maktab ta'limining kelajak uchun muhimligini ko'rsatishga intilish voqealarning Nilufar va uning maktabdoshlari bilan bog'liq syujetlar bilan boshlanishidan bilish mumkin: *"March 22 marks the beginning of the school year in the city. Streets, buses and sidewalks are crowded with students, teachers and professors. It rained last night, but the sun is out now, spreading a warm glow over the trees and grass. It's a beautiful day."* ("22-mart shaharda o'quv yilining boshlanishi. Ko'chalar, avtobuslar va yo'laklar talabalar, o'qituvchilar va professorlar bilan gavjum. O'tgan kecha yomg'ir yog'gan bo'lsa ham, bugun quyosh charaqlayapti, daraxtlar va maysalar uzra iliq nurlarini sochyapti. Juda chiroyli kun.") [3,18]. Aynan shu parchaning o'zi o'quv yilining boshlanishi bahor faslining kirib kelishi bilan qiyoslanishi barobarida afg'onistonliklar uchun ham aslida ta'lim juda muqaddas ekanligini anglatga, sharoit bunga imkon bermayotganligi maktab o'quvchilari va maktab transportlariga uyushtirilayotgan hujumlar bilan izohlanadi.

Nilufar Pazira maktab tizimini, uning nosog'lom tuzumini ham tanqid etadi, jumladan, ularning ikkita xizmatkor yigit bo'lib, har ikkalasi ham bir xil maosh olib ishlashardi. Chiroyli xusnixatli Ashur va o'qishni ham bilmaydigan Xuseyndod ismli yigitlarning bir xil sharoitga ko'nishlariga, ya'ni Ashurning kelajagi bor kasblarda ishlamasligiga sabab-maktabda faqat bir davlat imtixonlari o'tkazilib, har bir o'quvchiga ham faqat bir marta imkoniyat berilardi, imtixonidan

o'ta olmagan talabalar bir umrga oliy ma'lumotli bo'lish orzusidan mahrum bo'lishgan. *"Aushur has beautiful handwriting. "Like pearls on paper" is how my parents describe it. He studied up to grade eight, he says, but after failing to pass the entry-to-highschool exam, he couldn't continue. All students are required to pass a national exam before they can graduate to grade nine. Those who fail become dropouts without the chance of return. "It is totally stupid," my father says in fury. "It's part of President Daoud Khan's new plan for a country that needs more schools, not more entry exams." The president claims that the entry exam will raise students' level of intelligence. "But in effect, he's depriving thousands of teenagers of education altogether," says my mother, who teaches Dari literature at the local school. She says she's seen very intelligent students fail the exam. "And they have no choice but to work at low-paid jobs, without any future or hope for further education."* ("Ashur chiroyli husnixatga ega bo'lib, ota-onamning tasvirlashicha, xuddi "qog'ozdagi marvaridlardek". O'zining aytishicha, sakkizinchi sinfgacha ta'lim olgan va oliy ta'limga o'tish uchun maktabda olinadigan imtihondan yiqilgan va o'quv jarayonini qayta davom ettira olmagan. Imtihondan yiqilganlarga qayta imkoniyat berilmagan. Otam jahli chiqib, "G'irt bachkanabozlik", derdi. Bu ham Dovudxonning mamlakat uchun ko'proq maktablar kerak, ammo imtihonlar emas degan siyosatining bir qismi edi. Prezidentning xavotiriga ko'ra kirish imtihonlari talabalarning zakovat darajasini oshirarkan. Maktabda doriy adabiyotidan dars beruvchi onamning ta'kidlashicha, bu siyosat minglab talabalarni ta'limdan mahrum etish yo'li edi. U juda bilimli talabalarning ham imtihondan o'ta olmaganligini aytadi. Yorqin kelajaksiz yoki ta'limdagi umidsizlik sabab ularning eng kam haq to'lanadigan ishlarga rozi bo'lishdan boshqa chorasi yo'q edi.") [3,58-59].

Adiba buvisi Sobira misolida savodsiz afg'on qizlarining erta turmushga berilishini yozib o'tadi. Sobiraning baxtiga Habibulloning otasi diyonatli mehribon er bo'ladi. Asarda Nasima ismli o'n sakkiz yoshli qiz, yosh bo'lishiga qaramay Habibullo oilasini Pokistonga ko'chirishda dovyuraklik bilan ularni chegaragacha kuzatib qo'yadi. U qaysi qishloqda qolmasin, chegaralardan o'tmasin barcha bilan birdek chiroyli muomala qilib, oilani xavfsiz manziliga yetkazib qo'yadi va o'z vazifasini yakunlaydi. Nilufar Nasimaning dovyurakligiga havas bilan qaraydi, ammo o'z o'rnida Nasima ularning ziyoli oilasiga qarab ikki karra kuchli havas tuyg'usini his qiladi. Asarda Nilufarning maktabda o'qituvchilik faoliyati har xil rakurslarda tasvirlanadi. Bilimga chanqoq Maryam ismli yetim qizchaning onasi Nilufardan vazifalarni so'rashda qizini doskaga chiqarmaslikni o'tinib so'raydi, chunki Maryamning otasi yo'qligi bois kiyimlari juda eski bo'lib, u bundan juda uyalardi. Jihod kuniga bag'ishlangan kunda maktab direktori Xojasohib taklif qilinganda hamma ayol ustozlar yuzlarini yopishi so'raladi. Avval "Qur'on" tilovat qilinadi, so'ngra o'quvchilar o'zlari yozgan insholarni o'qib berishadi, ammo tabiiyki, musiqaga ruxsat bo'lmaydi. Xojasohib garchi oyliklar vaqtida berilmasa ham, o'qituvchilarning o'z vazifalarini ado etayotganliklari uchun ularga minnatdorchilik bildiradi. Adiba Qishloq qizlariga berilayotgan ilm, garchi ko'ngilli bo'lib ishlashni talab qilsa ham Nilufar Pazira bajarayotgan eng yuksak faoliyat ekanligini ta'kidlaydi.

Bir necha yil Kanadada oilasi bilan yashagan Nilufar Pazira Afg'onistonga kino olish maqsadida qaytib keladi. Shuncha vaqtdan so'ng nimalar o'zgarganiga qiziqadi, ammo vaziyat yanada og'irlashganini ko'radi. Mamalakatda har xil kasalliklar, oziq-ovqat tanqisligi, diniy ta'limning noto'g'ri talqini bois vaziyat ayollarga nisbatan yanada shavqatsizdek ko'rinardi. Ularning yagona haqiqati – ayollarimizni televizorda nomahramlar ko'rishini xohlamaymiz. Nihoyat, mullo Zohir ismli inson faqatgina masjid va mahallani tasvirga olishga ruxsat beradi. Erkak mahramsiz yurgan Nilufarga, tezroq o'ziga er topishi kerakligini ham uqdirib o'tishadi.

Kino olishning dastlabki kunida ko'plab qizlardan intervyu olishadi ammo ertasi kuni hech biri kelmaydi, chunki ular bu qilmishi uchun otasi yoki akasidan kaltak yegan edilar. *"... the word has spread in this community that their children will be beaten up if they cross the invisible line. There is a long stretch of bare land between the two communities in their imagination, it is a rigid line, rooted in mistrust, betrayals and hatred instigated by years of war"* (Mahaliy jamoa va kinochilar orasida ko'rinmas chegara paydo bo'ldi, agar kimdir o'sha chegaradan o'tsa ayovsiz kaltaklanardi. Ikki jamiyat orasida xuddi nafrat va ishonchsizlik kurtak ochgandi.) [3,247]. Bularning barchasiga asosiy sabab, Afg'onistonda maktab ta'limining yo'qligi va dinining noto'g'ri talqin qilinishi sabab bo'lgan.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan afg'on-amerika adibalari Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil, Nilufar Pazira va Saima Vahab asarlari afg'on jamiyatida ayol va uning o'rni masalasini badiiy tasvirlashgan. Ularning asarlari avtobiografik usulda yozilgan bo'lib, mualliflar o'zlari guvoh bo'lgan voqealarni realikka asoslanib, afg'on milliy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan diniy va dunyoviy ta'limning ayol hayotida naqadar muhimligi badiiy chizgilar bilan tasvirlangan. Xususan, afg'on-amerika ayollar adabiyotining tom ma'nodagi asoschisi Faruka Gavhariyning *"Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi"* va afg'on va Amerika madaniyatiga tegishlilik muammosini tahlil qilgan, Maryam Quadrat Asilning *"Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik ayol haqiqati"* asarlari oilada va jamiyatda ayol va uning o'rni ta'lim orqali belgilanishi o'z ifodasini topgan. Har ikkala adibaning hayot va ijod yo'lida erishgan muvaffaqiyatlariga ular tegishli bo'lgan jamiyatdagi erkaklar asosiy sababchi sifatida ko'rsatiladi. Ayollarning ilm olishi va ziyoli bo'lishida ota-bobo-tog'a-amaki zanjiri mohiyati Saima Vahobning *"Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari"* hamda Nilufar Paziraning *"Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab"* asarlarida mayda detallarga tayanib, ochib beriladi. Demak, tahlilga tortilgan barcha asarlarda qahramon ayollar hayotda o'z o'rinlarini topishida ilmga bo'lgan chanqoqligi va bu yagona kelajak eshiklarini ochuvchi kalit ekanligi adibalar tomonidan har tomonlama ijobiy bo'yoqdorlik asosida yoritilgan. Tadqiqotimizda o'rganilayotgan barcha adibalarimizning asarlarida ta'limni diniy va dunyoviyga ajratishda hech qanday mantiq yo'qligi, agar to'g'ri foydalanilsa, har ikkalasi ham inson zakovati va kamoloti uchun xizmat qilishi badiiy realizm yordamida tasviriy dalillangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farooka Gauhari. Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1996. – 255 P.
2. Maryam Quadrat Aseel. Torn between Two Cultures: An Afghan-American Speaks out. –Sterling: Capital Books, Inc, 2003. –191 P. Ruzmatova D.R. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi. Filol. fan.bo'y. fal. d-ri. ...diss.-Toshkent, 2020.-B 139.
3. Nelofer Pazira. A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan. New York: Free Press, 2005. – 416 P.
4. Saima Wahab. In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate. New York: Crown Publishers, 2012. – p.460.
5. Umurov X. Badiiy ijod asoslari.-Toshkent, O'zbekiston, 2001.
6. Xoldorov D.E. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida): Filol.fan.bo'y. fal. d-ri (PhD) diss.-Toshkent, 2017.-147
7. Ruzmatova D.R. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi. Filol. fan.bo'y. fal. d-ri. ...diss.-Toshkent, 2020.-146 b.